



**QASHQADARYO VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI  
METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI**

**“BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARIDA XXI ASR  
KO‘NIKIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING  
TENDENSIYALARI VA TEXNOLOGIYALARI:  
MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR”**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI  
(QARSHI SHAHRI, 2024-YIL 30-APREL)**

**“ТЕНДЕНЦИИ И ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ  
XXI ВЕКА У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ:  
ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ”**

**РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
(ГОРОД КАРШИ, 30-АПРЕЛЬ 2024-ГОД)**

**“TENDENCES AND TECHNOLOGIES OF DEVELOPING XXI  
ST CENTURY SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS:  
LOCAL AND FOREIGN EXPERIENCES”**

**REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE  
(KARSHI CITY, APRIL 30, 2024)**

- o'quv-biluv jarayoniga doir motivatsiyasini rivojlantirish;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini ma'ruza va amaliy mashg'ulot mazmuni bilan integratsiyalash;
- topshiriqlar berishda talabalarning individual rivojlanish tempini inobatga olish va rivojlantirish;
- talabalarning individual rivojlanishining dts talablari asosida umumiy rivojlanishiga adekvat tarzda amalga oshirilishini ta'minlash.

Oliy ta'lim jarayonida mustaqil ta'limini individuallashtirish talabalarning mustaqil bilim olish, tadqiqiy faoliyatni amalga oshirish va eng asosiysi, fan va texnologiyalar tezkorlik bilan rivojlanayotgan bugungi davrga moslashuvchanligini ta'minlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Нуруллаева Ш.У. Педагогик таълим жараёнини моделлаштириш ва лойиҳалаштириш йўллари. Замонавий бошланғич таълим: инновациялар, муаммолар ва ривожланиш йўллари. Халқаро илмий-амалий анжуман. Термиз. 2023. Б. 23-27.

2. Нуруллаева Ш.У. Инновацион таълим муҳитида педагогик моделлаштириш муаммолари. Тасвирий санъат таълими узвийлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари: муаммолар ва ечимлар. Халқаро илмий-амалий конференция. Қарши, 2023. Б. 10-13.

3. Nurullaeva Shakhlo Uktamovna. Mechanisms of self-development in pedagogical activity. E- Global Congress Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference. Date: 19th February, 2023. P. 9-15.

4. Nurullaeva Shakhlo Uktamovna. Modern pedagogical models of professional training of future teachers in Uzbekistan. Excerpts from Uzbekistan. The special periodical journal of Uzbekistan writers and scholars held in Egypt Alexandria University. Alexandria University, 2022. P. 95-97.

5. Nurullaeva Shakhlo Uktamovna. Pedagogical conflicts, ways to resolve them and positive aspects of conflicts. American Journal of Pedagogical and Educational Research. Volume 19, | December, 2023. P. 88-91.

## **KLASTERLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING AQLIY TAFAKKURINI FANLAR VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH**

Ernazarova Munisxon Jo'raqulovna  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy tafakkurini fanlar vositasida shakllantirish, "Tarbiya" fanining joriy etilishi, "Tarbiya fani darsliklari va ularning o'quvchilar tafakkurini shakllantirishdagi o'rni masalalari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** darslik, o'quv materiallari, aqliy tafakkur, tarbiya, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается формирование психического мышления учащихся начальных классов посредством науки, внедрение науки «Образование», учебников науки «Образование» и их роль в формировании мышления учащихся.

**Ключевые слова:** учебник, учебные материалы, умственное мышление, образование, сотрудничество, коммуникативное, творческое мышление, критическое мышление.

**Abstract:** This article examines the formation of the mental thinking of primary school students through science, the introduction of the science of "Education", the textbooks of the science of "Education" and their role in the formation of students' thinking.

**Key words:** textbook, educational materials, mental thinking, education, collaboration, communicative, creative thinking, critical thinking.

Bugun jahon hamjamiyatida davlat va jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch sifatida ta'lim tizimida til va tafakkur uyg'unligiga erishishning innovatsion texnologiyalar vositasida amalga oshirilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quvchilarning aqliy tafakkurini, tafakkur tizimi va tezligini shakllantirish, ularni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash muhim sanaladi. Ta'lim tizimining dunyo amaliyotida o'qitish metodikasini individuallashtirish va kompetensiyaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida zamonaviy texnologiyalarini joriy etishga ta'lim sifatini ta'minlashning yetakchi omili sifatida qaraladi. Zamonaviy texnologiyalarning ta'lim tizimiga kirib kelishi o'quvchilarning nafaqat zamon bilan hamnafas bo'lgan holda ta'lim-tarbiya olishlarida, balki, ularda yana bir qator ijobiy fazilatlar shakllanishi jihatidan ham muhim sanaladi. Yaqin yillar oralig'ida raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga kirib kelishi bilan birgalikda bir qator o'zgarishlar ham sodir bo'ldi. Jumladan, maktablarda yangi o'quv fanlari joriy etildi va bir qator fanlar qisqartirildi. Joriy etilgan fanlar uchun yangi darsliklar yaratildi. Shu jumladan, 2020-yilda O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilish

choralari to'g'risida"gi qarori loyihasini jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qildi. Ushbu qarorga ko'ra joriy etilayotgan "Tarbiya" fani umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amalda bo'lgan "Odobnoma", " Vatan tuyg'usi", "Dunyo dinlari tarixi", "Milliy istiqlol g'oyasi" kabi fanlarni birlashtirgan holatda joriy etilishi ko'zda tutilgan. 2020-yil 6-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 422-son qaroriga muvofiq "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Qarorda "Tarbiya" fani yuzaasidan o'quv materiallari, darsliklar yaratish, ushbu fondan maktabda qaysi fan mutaxassislari dars berishlari kabi masalalar belgilab qo'yilgan. Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" faning asosiy maqsadi bugungi kun talabiga javob beradigan barkamol , xalqning ma'naviy boy merosiga umumbashariy qadriyatlariga, urf-odat, ana'nalariga tayanib ongli shaxslarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalash hisoblanadi."Tarbiya" fani darsliklari boshlang'ich sinflar uchun ilk marotaba 2020- yilda nashr etilgan. Amaldagi darsliklar esa 2023-yilda nashr etilgan.

Darslik-davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablar asosida belgilangan milliy istiqlol g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fanning asoslarini mukammal o'zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr hisoblanadi. Hozirgi kunda amalda bo'lgan darsliklar 4K modeli asosida ishlab chiqilgan. 4K modeli bu o'qitishning yangi tamoyillarini o'z ichiga oladi. Ya'ni bu ta'moyilga ko'ra, o'quvchilarga faqat nazariy ma'lumotlarni yodlatish emas, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalar shakllantirish ham muhim sanaladi. 4K modeli o'z ichiga quyidagi 4 ta asosiy tamoyilni oladi:

**Kollaboratsiya- bu tamoyilga ko'ra** darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

**Kommunikativlik- bu tamoyilga ko'ra esa** o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

**Kreativ fikrlash-** o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ya'ni turli vaziyatlarda duch kelgan muammolarga ijodiy yondashishni shakllantiradi.

**Kritik (tanqidiy) fikrlash-** ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy